

ijtimoiy hodisalardir. Innovatsion faoliyatni takomillashtirish jamiyat sohalarini yanada rivojlanishiga xizmat qiladi deb hisoblashimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi qonuni. [/https://lex.uz/ru/docs/491039](https://lex.uz/ru/docs/491039).
2. Платон. Собрание сочинений в 4 т. Т. 2. М.: Мысль, 1993. С. 346–413.
3. Шумпетер Й. А. Теория экономического развития. М.: Прогресс, 1982.
4. Крючкова, Светлана Евгеньевна. Инновации: Философско-методологический анализ: диссертация ... доктора философских наук: 09.00.11. Москва 2001.
5. Норов А. Э. Инновацион фаолият ва унинг натижаларини тижоратлаштиришнинг назарий ва услубий асослари. // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” Ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2020 yil. –Б. 117.

O‘QUVCHILARNING NUTQINI O‘STIRISHDA TA’LIMY O‘YINLARNING AHAMIYATI.

Qodirova Xosiyat Nazarovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf ona tili darsligida didaktik va ta’limiy o‘yinlar orqali o‘quvchilarning nutqini o‘stirish bo‘yicha metodik tavsiya berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Ta’lim jarayoni, pedagogik, didaktik o‘yin, motivatsion, nutqiy mashqlar, o‘yinli texnologiyalar, obrazlilik, o‘quv maqsadi.

Ta’lim jarayoni nihoyatda murakkab jarayon hisoblanadi. Ta’limning barcha bo‘g‘inlarini kuzatganimizda, uning poydevori aynan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mehnati samarasi orqali amalga oshirilishi natijasi ekanligini alohida qayd etish lozim.

O‘qitish jarayonida o‘quvchilarning bilimini oshirish bilan bir qatorda ularning og‘zaki va yozma nutqlarini o‘stirish zarur hisoblanadi.

Bejizga ham, yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan maktablarga va boshlang'ich ta'lim sohasiga katta e'tibor qaratilayotgani, buning asosida yosh avlodni kelajagi, ularning hayotda tutgan o'rni xususidagi odilona siyosat bosh me'zon qilib olinmagan.

Shunday ekan, har bir ta'lim sohasida ish faoliyatlarini olib borishlarida darslarni turli metodlar va o'yinli texnologiyalar orqali qiziqarli va samarali tashkil etishlari davr talabidir.

Ta'lim jarayonida har bir metod didaktik vazifalarni hal etish-ya'ni bolalarga yangi bilimlarni shakllantirish mahorat va ko'nikmalarini mustahkamlash, o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy ravishda qayta ishlash usullar majmuidir. Ana shu jarayonda amalga oshirilgan metodlar bilimlarni biridan ikkinchisiga berish maqsadida o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan amalga oshirilayotgan harakatga aytiladi.

O'qitish usuli-bu metodlarning bir elementidir. Usullarni ko'rgazmaviyligi va emotsionalligiga qarab so'zli, ko'rgazmali, o'yinli usullarga ajratish mumkin.

Nutqiy na'muna-bu o'qituvchining ilgaridan mashq qilingan nutqiy faoliyatidir. Nutqiy na'munadan izohli, ko'rsatmalar berish, birgalikda faoliyat yuritish bolalarning nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etadi.

O'qituvchi tomonidan na'muna bolalarga aniq, tushunarli, baland va bosiq ovozda namoyon qilinadi.

Takrorlash-esda saqlab qolishning eng muhim jarayoni hisoblanadi. Bunda o'qituvchi mavzuga oid bo'lgan tushunchalarni oldin o'zi, so'ngra o'quvchilar bilan jo'r ovozda amalga oshirilishi nihoyatda zarur.

Savod o'rgatish davrida o'qituvchi tomonidan tushuntirish berilayotgan mavzuni ochib berilishiga zamin yaratadi.

Ko'rsatma-o'quvchilarga qanday harakat qilish, qanday qilib natijaga erishish mumkinligini shakllantirishdan iborat. Ko'rsatmalar o'qituvchi tomonidan berilib so'ngra uni tashkiliy tomondan tartibga keltirib turishi lozim.

So'zli mashqlar-nutqiy mahorat va ko'nikmalarga ega bo'lishlari hamda ularni takomillashtirish uchun o'quvchilarning muayyan nutqiy harakatlarini ko'p marta bajarishlaridir.

Baholash- o'quvchilarning mavzuga doir javoblari va mulohazalari tinglanib ularni a'lo, ijobiy, qoniqarli va qoniqarsiz tarzda bayon etishlariga ko'ra baholanadilar.

Kichik yoshdagi o'quvchilarning nutqiy jihatdan kamchiliklarini bartaraf etishi uchun baholashni to'g'ri tashkil etish joiz.

Savol-javob metodi- so'zli murojaat bo'lib, u mavjud bilimlarni ro'yobga chiqaruvchi yoki uni qayta ishlash zaruratini qarshisida turgan o'quvchiga vazifa qo'yishi va uning javobini kutishni talab etadi.

Kichik yoshdagi o'quvchilar bilan ishlash jarayonida boshlang'ich sinf o'qituvchisi quyidagilarga e'tibor qaratishi lozim.

- ona tilining barcha tovushlarini to'g'ri talaffuz qilishi, nutqdaginavjud kamchiliklarini bartaraf etishi;

- aniq, tushunarli nutqqa, ya'ni yaxshi diksiyaga ega bo'lishi;

- o'z nutqida adabiy til me'yorlaridan unumli foydalanishi, orfoepik qoidalarga rioya qilishi;

- ifodalilikning intonatsion vositalaridan bildirilgan fikrlarni hiobga olgan holda to'g'ri foydalanishga intilishi;

- muloqot chog'ida biroz sekinlashtirilgan suratda ovozni pasaytirgan holda so'zlash;

- matnlar mazmunan, grammatik tuzilmalardan foydalangan holda ravon holda imkonli tarzda hikoya qilishi va bolalarga yetkazish.

O'quvchilar nutqini rivojlantirishning yuqori darajasiga quyidagilar evaziga erishilishi mumkin:

- tilning fonematik jihatiga e'tibor berishi;

- o'z fikr mulohazalarini erkin bayon etishi;

- muloqotga kirisha olishlari.

Shunday qilib, kichik yoshdagi o'quvchilarni rejali tarzda rivojlantirish uchun tanishtirish avvalambor ularni asosli ravishda tanlash eng ahamiyatli so'zlarga e'tibor qaratish, mavzu jihatdan xilma-xilligi, ya'ni tarkibi ma'nosi bo'yicha o'rganishni ta'minlash muhim hisoblanadi.

Boshlang'ich sinflarda nutqiy ko'nikmalarni shakllantirish bilan bir qatorda o'quvchilarning darsdagi faolliklarini oshirish muhim hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini darslarga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda, avvalo ularda bilimlarga oid tushunchalarni shakllantirish shart. Kichik yoshdagi o'quvchilarni

yosh va individual-psixologik rivojlanishi xususiyatlaridan kelib chiqib, ularda turli xil bilimlarga oid tushunchalarni didaktik o'yinlar orqali shakllantirish mumkin.

Aksariyat boshlang'ich sinf o'qituvchilari dars faoliyatini turli didaktik o'yinlardan foydalanmasdan dars mavzusini tushuntishni afzal ko'radilar. Biroq, endigina bog'cha ta'limidan maktab ta'limiga jalb etilgan bola, o'sha paytning, ya'ni bog'cha davrida o'yinchoqlar bilan o'ynash o'zaro erkin muloqotdan va turli xil o'yinlardan muloqotli vaziyatlarning hissiyotlaridan uzoqlashmagan bo'ladi.

Shuning uchun o'qituvchi darslarga o'quvchilarni qiziqishlarini oshirish uchun o'yinli texnologiyalardan foydalanish zarur hisoblanadi.

O'yin-bu jismoniy tajribani o'zlashtirish va qayta yaratishga yo'naltirilgan faoliyat turi hisoblanadi.

Quyida boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy bilim faoliyatlarini rivojlantirishga doir bo'lgan ma'lim jarayonda o'yinli texnologiyalardan foydalanish shart-sharoitlari xususida to'xtalib o'tamiz.

O'yin-bu jismoniy tajribani o'zlashtirish va qayta yaratishga yo'naltirilgan faoliyat turi hisoblanadi. Bunda ishtirokchilar o'rtasida rollar taqdimoti aniq belgilanib, har bir vazifa xususiyati keltiriladi.

O'qitish jarayonida qo'llaniladigan pedagogic o'yinlarning asosiy xususiyati uquv-biluv faoliyatiga yo'naltirilgan o'qitish maqsadiva unga mos keluvchi pedagogik faoliyat natijasidir.

Har bir o'yinli texnologiyalar quyidagi tarkibiy komponentlarga bo'inadi:

- motivatsion;
- maqsadga yo'naltirilganlik;
- majmuiy tashkiliy;
- baholashga doir.

Bolalarni o'yinga o'rgatishning muhim omili ularda o'yin sujeti rivojlanish mantig'ini bolalar tomonidan o'zlashtirish hisoblanib bir harakat boshqasiga qaralganda tayyorlovchi hisoblanadi.

Masalan: ona tili va o'qish savodxonligi darsidagi "Kun tartibi" mavzusi berilgan. Ushbu darsni tashkil etishda o'qituvchi tomonidan rolli o'yin tashkil etilsa yaxshi natija beradi.

Unda bir o'quvchilar ertalabki soat 7:00 dan kechqurun soat 9:00 ga qadar bajariladigan ishlarini rolli tarzda namoyon etadi. Mana shu o'yin orqali qayerda o'quvchilar noto'g'ri faoliyat bajarsalar, o'qituvchi tomonidan kuzatishlar orqali ish faoliyatidagi noto'g'ri tomonlariga tuzatishlar kiritib boriladi. Ushbu o'yin orqali o'quvchilarga ketma-ketlikda kun davomida bajariladigan ishlar haqida bilimlar shakllantiriladi.

Didaktik o'yinlardan nutqiy rivojlanishlariga oid (mashq qilishi va ijodiy mashqlar) yordamida esa o'z fikrlarini aniq va tushunarli qilib ifodalash, mulohaza yuritish, isbotlash hamda o'z bilimlarini namoyon etishda keng foydalanish mumkin.

Bolalar tomonidan oldindan tayyorgarlik talab qilingan o'yin harakatlarini bajarish.

Masalan: ona tili o'qish savodxonligidagi "Kichik yordamchi" mavzusini o'tishida quyidagi rolli o'yinni o'nashi mumkin:

Bir o'quvchi onasi rolida qiziga:

"Kel qizim ukangni ovutib tur, ungacha men sizlarga shirinlik tayyorlayman"- deydi.

Qizi: Xo'p bo'ladi, onajon.

O'qituvchi tomonidan bo'ladigan o'yin harakatlarini sanab o'tadi, so'ngra ularga yuqoridagi harakatlar asosida matn tuzishi topshiriq qilib beriladi. O'qituvchi tomonidan quyidagi na'muna beriladi.

Kichik yordamchi

Ertalab tursam oyim "Kel, ukangni ovutib tur, ungacha men sizlarga shirinlik tayyorlayman" dedi. Men ukam Sobirni o'yinchoq bilan o'ynab ovutdim oyim ajoyib shirinlikni dasturxonga qo'yib "barakalla o'g'lim" dedilar.

Ko'rsatilgan metodik usullar bolalarda alohida o'yin harakatlarini zanjirdek bog'lashni ya'ni bog'lanishli nutqini o'stiradi.

Vaqtı-vaqtı bilan turli qo'girchoq va o'yinchoqlarini kiritish zarur. Chunki, bolalar o'z faoliyatlarini va harakatlarini o'yinchoqlar obrazlarida yaratishi orqali mustaqil fikrlashga hamda o'quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlashlarida katta ahamiyat kasb etadi. Ular o'z hayotlarida kuzatgan yoki ishtirokchisi bo'lgan voqealarni ko'z oldilariga keltirib ijro etishi orqali namoyon bo'ladi.

Topshiriqlar o'zining mazmuni jihatidan ancha yaqin bo'lgan sujeti rolli o'yinlarga asoslanishi maqsadga muvofiqdir. Har qanday rolli o'yin tayyorlov ishlov olib borishni talab qiladi.

O'yinsiz tom ma'nodagi aqliy rivojlanish bo'lish mumkin emas. O'yin o'quvchilarda bilimga imtiyoz va qiziqishni uyg'otadigan uchqundir.

O'yin- boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'lum sinflarni shakllantirish uchun kattalar, o'qituvchilar tomonidan to'g'ri tashkil etilishi bolalarga hayot haqidagi bilimlarni egallashlarida ham muhimdir. O'yin vositasida o'quvchilarning bilimlari, o'zlashtirish jarayoni qulaylashadi, turli xil predmet va kishilar bilan munosabatda bo'lishga o'rganadi, shuningdek, muomala madaniyati shakllanadi. Bunday o'yinlar o'quvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini o'stirish bilan bir qatorda tarbiyalanganlikning eng to'g'ri samarali metodlaridan biri hisoblanadi.

O'yin vositasida o'quvchilar bilimlarini o'zlashtirishlari jarayoni qulaylashadi, turli xil predmetlar bilan munosabatda bo'lishga o'rganadi, shuningdek, muomala madaniyati shakllanadi. Bunday o'yinlar o'quvchilarga mustaqil fikrlarni tarbiyalashning eng to'g'ri va samarali metodlari sanaladi. Ma'lum bir materiallar yoki shart-sharoitlar talab etmaydi, balki o'qituvchidan o'yin tashkil etish sohasidan bilim va maqolalarni talab etadi.

Umuman olganda, o'quvchilarning nutqlarini o'stirishda ta'limiy o'yinlardan foydalanish dars sifati va samaradorligini yuqori saviyada bo'lishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.Tojiboyeva “ O'quvchi yoshlarning faolliginioshishning pedagogik-psixologik imkoniyatlari. Xalq ta'limi jurnali Toshkent N-6 2010-yil.
2. Bobonazarov O- Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasbiy bilimlarga oid tushunchalarni shakllantirishida o'yinli texnologiyalarning o'rni. Xalqaro konferensiya Toshkent. 25-may, 2017-yil.
3. Z.Qorayev, T, Ro'ziyeva “Savod o'rgatishda didaktik o'yinlar” Boshlang'ich ta'lim jurnali N-9 Toshkent 2014-yil.